

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI DAVLAT ADABIYOT MUZEYI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI



**O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTINI O‘RGANISHNING
NAZARIY VA MANBAVIY ASOSLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
m a t e r i a l l a r i
(14-oktyabr, 2022-yil)

PROFESSOR NASIMXON RAHMONOV
tavalludining 70 yilligiga bag‘ishlanadi

TO‘SHKEHT
«FIRDAVS-SHOH»
2022



UO‘K
KBK
R

Rustamova D. va boshq.

O‘zbek mumtoz adabiyotini o‘rganishning nazariy va manbaviy asoslari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. D.Rustamova, L.Ahmadaliyev, E.Jumanov. – T.: “FirdavsShoh” nashriyoti, 2022-y. – 406 b.

ISBN 978-9943-0000-00– 1

Tahrir hay'ati:

**B.Abdusalimov, I.Majidov, J.Eshonqulov, H.Boltaboyev,
B.To‘xliyev, O.Jo‘raboyev, N.Jo‘raqo‘ziyev.**

To‘plovchilar:

**Dilnoza Rustamova,
Lochinbek Ahmadaliyev,
Elbek Jumanov.**

Ushbu to‘plamga O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi va O‘zMU hamkorlikda o‘tkazgan “**O‘zbek mumtoz adabiyotini o‘rganishning nazariy va manbaviy asoslari**” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi (14.10.2022 y.) materiallari jamlangan. Anjuman atoqli tuykiyshunos olim, professor Nasimxon Rahmonov tavalludining 70 yilligiga bag‘ishlandi.

O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi Ilmiy kengashining Qaroriga ko‘ra nashrga tavsiya etilgan (majlis bayoni №17/2, 05.10.2022 y.).

ISBN 978-9943-0000-0– 1

© Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi, 2022
© “Firdavs-Shoh” nashriyoti, 2022



ABULG‘OZIY ASARLARINING QO‘LYOZMA NUSXALARI HAQIDA

Marg‘uba Abdullayeva,
f.f.d., TOSHDO‘TAU dotsenti
margubaabdullayeva507@gmail.com
(O‘zbekiston)

Annotatsiya: Maqolada Abulg‘oziy Bahodirxon asarlarining qo‘lyozma nusxalari haqida ma‘lumot berilgan. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik ilmiy tekshirish instituti va O‘zRFA Adabiyot muzeyi qo‘lyozmalari fondida mavjud bo‘lgan Abulg‘oziy adabiy merosiga tegishli qo‘lyozmalar o‘rganildi. Mazkur qo‘lyozmalarning tuzilishi, o‘lchami, ko‘chirilgan yili, kotiblari haqida ma‘lumotlar berildi.

Kalit so‘zlar: Abulg‘oziy, Xiva xoni, adabiy meros, “Shajarayi turk”, “Shajarayi tarokima”, “Manofe’u-l-inson”, qo‘lyozma, tadqiq.

Аннотация: В статье приводятся сведения о рукописных кориях произведений Абулгази Бахадирхана. Изучены рукописи, относящиеся к литературному наследию Абулгази, которые имеются в рукописном фонде Института востоковедения имени Абу Райхана Беруни и Музея литературы УзРФА. Даны сведения о структуре, размере, годе перерисывания и рисцах этих рукописей.

Ключевые слова: Абулгази, Хивинский хан, литературное наследие, «Шаджарайи турк», «Шаджарайи тарокима», «Манофеу-л-инсан», рукопись, исследование.

Annotation: The article provides information about handwritten copies of the works of Abulgazi Bahadirkhan. The manuscripts related to the literary heritage of Abulgazi, which are in the manuscript fund of the Institute of Oriental Studies named after Abu Raykhan Beruni and the Museum of Literature of the OzRFA, have been studied. Information about the structure, size, year of copying and scribes of these manuscripts is given.

Key words: Abulgazi, Khan of Khiva, literary heritage, "Shajarayi Turk", "Shajarayi tarokima", "Manofeu-l-insan", manuscript, research.

Abulg‘oziy Bahodirxon Xorazmiy o‘z ijodi bilan o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. 18 yil davomida (1645-1663) Xivaga xonlik qilgan Abulg‘oziy Bahodirxon ilm-fan, san‘at va adabiyot rivojiga ulkan hissa qo‘shdi. O‘z davrida yetuk tarixchi sifatida tanildi. Abulg‘oziy Bahodirxon ijodi mahsuli bo‘lgan uch asar: “Shajarayi tarokima”, “Shajarayi turk”, “Manofe’u-l-inson” adabiyotimiz tarixida muhim tarixiy, adabiy manba sifatida o‘rin olgan.

Abulg‘oziy ijodini tadqiq etgan Halim Xudoynazarov o‘z risolasida “Abulg‘oziy ijodini yanada chuqur o‘rganish uchun uning qo‘lyozma kitoblari asosida tadqiqot ishlarini olib borish adabiyotshunoslarimizning asosiy vazifalaridan biridir” [1, 52],-deya ta‘kidlagan edilar. Darhaqiqat, asarlar mohiyati, ularning ilmiy, adabiy va badiiy qimmatini to‘la yoritish uchun asl manba (qo‘lyozma)lar bilan ishlash muhim ahamiyatga ega. Shu bois Abulg‘oziy asarlarining qo‘lyozma nusxalari bilan to‘liq tanishishni maqsad qilib, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondidagi katologlarni ko‘zdan kechirdik. Abulg‘oziy Bahodirxonning uchala asarini ham qo‘lyozma nusxalari mavjudligini ko‘rdik.

Katologda Abulg‘oziyning 1071 (1660)-yilda yozilgan “Shajarayi tarokima” asarining to‘rtta qo‘lyozma va bitta toshbosma nusxalari mavjud ekan. Bular 1223, (1223), 5973, 1807 inv. raqamdagi qo‘lyozma nusxalari hamda R.1223 inv. raqamdagi toshbosma nusxasidir. Bu qo‘lyozma nusxalar ko‘chirilgan yili, hajmi, o‘lchami va ko‘chiruvchilari bilan bir-biridan farqlanadi.

“Shajarayi tarokima”ning 1223 inv. raqamli qo‘lyozma nusxasi 1341/1923 yillarda Mirza Omon tomonidan ko‘chirilgan bo‘lib, nasta’liq xatida yozilgan. O‘lchami 13,5 x 22,5 sm, 58 varaq, yo‘li 15 qatordan iborat.

Xuddi shu inv. raqamida (1223) yana bir qo‘lyozma bo‘lib, u ham yuqoridagi qo‘lyozma nusxaning aynan o‘zidir.

Biroq R.1223 inv. raqamli “Shajarayi tarokima”ning toshbosma nusxasi ham bor. Bu nusxa yuqoridagi qo‘lyozmaning toshbosmasidir.

5973 inv. raqamidagi qo‘lyozmaning nomi “Shajarayi tarokima yo O‘g‘uznoma” deb nomlangan. Bu qo‘lyozma 1214/1800-yilda ko‘chirilgan bo‘lib, nasta’liq xatida yozilgan. O‘lchami 18 x 22 sm, 50 varaq, qator yo‘li 16tadan iborat.

“Shajarayi tarokima”ning keyingi 1807 inv. raqamdagi qo‘lyozma nusxasi 1344/1926 yillarda Hamid Sharif tomonidan ko‘chirilgan. Nasta’liq xatida yozilgan bu qo‘lyozma nusxaning hajmi kichikroq, 44 varaqdan iborat. O‘lchovi 19x19 sm, 17 qatorni tashkil qiladi. Bu qo‘lyozmalarning barchasi eski o‘zbek tilidadir.

Bizga ma’lumki, “Shajarayi tarokima”ning tanqidiy matni 1958 yilda A.N.Kononov tomonidan amalga oshirilgan edi [2]. Kononov “Shajarayi tarokima”ning 7ta qo‘lyozma nusxasini o‘rganib, bu asarni tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil etgan. 7ta qo‘lyozmaning 4tasi Toshkentda saqlanayotgan qo‘lyozmalar bo‘lsa, qolgan uchasi Sankt-Peterburg va Ashxabod muzeylarida saqlanayotgan nusxalaridir. Inv. raqami 1522, 1807, 5973, 1223 bo‘lgan qo‘lyozmalar Toshkentda saqlanayotgan qo‘lyozmalardir.

A-895 raqamli Sankt-Peterburg muzeyida saqlanayotgan qo‘lyozma ham Kononov tomonidan o‘rganilgan. Bu qo‘lyozma 1237/1822-yilda ko‘chirilgan. O‘lchami: 18x11¹/₂ sm, 55 varaqdan iborat.

Keyingi qo‘lyozma Turkmaniston FA da saqlanayotgan 546 va 555 raqamli Ashxabod nusxalaridir. 546 raqamli qo‘lyozma XIX asrda ko‘chirilgan bo‘lib, o‘lchami 15x25 sm, 45 varaq va har bir varaq 13 qatordan iborat.

555 raqamli Ashxabod nusxasi 1347/1929-yilda ko‘chirilgan bo‘lib, o‘lchami 16x33 sm, 78 varaqdan iborat.

A.N. Kononov “Shajarayi tarokima”ning mana shu 7 ta qo‘lyozma (1522, 895, 1807, 5973, 1223, 546, 555 inv. raqamli) nusxalarini qiyosiy o‘rganib, asarning mukammal tanqidiy nashrini tayyorlagan.

Abulg‘oziy Bahodirxonning keyingi asari “Shajarayi turk”ning ham O‘zR FA ShI da 8ta qo‘lyozma nusxasi mavjud. Bular R. 7668, 1552, 2056, 7668, 851, 11110, 7626, 1543 inv. raqamli qo‘lyozmalardir. Bundan tashqari

“Shajarayi turk”ning R.7668 inv. raqamli toshbosma nusxasi ham shu joyda saqlanadi.

Abulg‘oziy Bahodirxonning “Shajarayi turk” asari 1071/1660-yilda yozila boshlangan. 1074/1663-yillarda Mulla Muhammad Zamon Urganjiy tomonidan itmomi (nihoyasi)ga yetkazilgan.

1) R. 7668 raqamli qo‘lyozma nusxa hijriy 1349-yilda ko‘chirilgan. Chig‘atoy tilida, nasta‘liq yozuvida yozilgan. O‘lchami: 15x22 sm, 13 qator, 280 varaq.

2) 1552 inv. raqamdagi qo‘lyozmaning o‘lchovi 15x20 sm, 16 qator, 42 varaq.

3) 1351/1932-yilda ko‘chirilgan qo‘lyozma nusxasi 271 varaqdan iborat. O‘lchovi 17,5x27,9 sm. Bu nusxa boshqa qo‘lyozmalarga nisbatan badxat.

4) 7668 raqamli qo‘lyozma asar “Shajarayi turk va Manofe’u-l-inson”, -deb nomlanadi. Bu qo‘lyozmaning ko‘chirilgan yili aniq emas. O‘lchami 14,5x25 sm, 13 qator, 269 varaqni tashkil qiladi. Ikki asarning ketma-ket ko‘chirilishi, asar hajmining kengayishiga olib kelgan. 7668 inv. raqamli qo‘lyozma katalogida “Kitob notamom qolgani uchun bir qismini Mahmud Muhammad bin Zamon Urganjiy yozgan”, -degan izoh keltirilgan.

5) 851 inv. raqamidagi qo‘lyozma nusxa eskirgani uchun asarning boshi va oxiri qaytadan yozilgan. O‘lchami 15,5x25,5 sm, 17 qator, 193 varaq.

6) 11110 inv. raqamli, nasta‘liq xatida yozilgan qo‘lyozma nusxaning o‘lchami 16,5x20 sm, 13 qator, 217 varaqdan iborat.

7) 7626 inv. raqamli qo‘lyozma o‘lchami 18x22 sm, 17 qator, varag‘i 159 sahifa. Xati – nasta‘liq.

8) H.Sulaymonov nomidagi Qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan 1543 inv. raqamli manba hijriy 1308-yilda ko‘chirilgan. O‘lchami 23,5x15,5 sm. 222 sahifa.

R. 7668 inv raqamli “Shajarayi turk” toshbosma nusxasi hijriy 1349-yilda ko‘chirilgan. 13 qator, 280 varaq, o‘lchami 15x22 sm. Xati – nasta‘liq.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, “Shajarayi turk”ning 8ta qo‘lyozma va bitta toshbosma nusxalari asosida asarning tanqidiy matnini amalga oshirish mumkin.

Abulg‘oziy Xorazmiyning uchinchi asari tibbiyotga doir “Manofe’u-l-inson” asaridir. Muallif bu asarini Ibn Sinoning tibbiyotga oid kitoblarini mukammal o‘rganib yozganligini ta’kidlaydi. “Manofe’ ul-inson” asarida 120 xil kasallik (jumladan, jigar kasalligi, bel og‘rig‘i, ko‘z og‘rig‘i, isitma va taloq yallig‘lanishi) haqida batafsil ma’lumot beriladi.

Abulg‘oziyning “Manofe’u-l-inson” asarining ikkita qo‘lyozma nusxasi mavjud. Birinchisi 4107 inv. raqamdagi manba bo‘lib, o‘lchami 10,5x17 sm, 9 qator, 64 varaq. Bu qo‘lyozma to‘lig‘icha saqlanmagan. Asarning so‘ngi qismlari yo‘q.

Ikkinchi qo‘lyozma nusxa esa yuqorida qayd etilgan 7668 raqamli qo‘lyozma bo‘lib, bunda “Manofe’u-l-inson” asari “Shajarayi turk”dan keyin ko‘chirilgan. Shu sababli ikki asar yaxlit qo‘lyozma holda saqlangan. Bu

qo‘lyozma nusxa Abulg‘oziy asarlarining qo‘lyozma nusxalari ichida eng yirigi bo‘lib, u 269 varaq.

Abulg‘oziy Bahodirxon asarlarining qo‘lyozma nusxalari haqidagi ma‘lumotlar uning o‘z davri va keyingi davrlarda shuhrat qozonganligi hamda ommaning e‘tiborida bo‘lganidan dalolat beradi. Uning asarlari turli davrlarda kotiblar tomonidan qayta-qayta ko‘chirilgan. Bu qo‘lyozma nusxalarni qiyosiy-ilmii tadqiq etish adabiyotshunoslikning dolzarb vazifalaridandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Худойназаров Х. Абулғози Баҳодирхон тарихчи ва адиб. – Т.: Ўзбекистон. 1994.
2. Кононов А.Н. Родославная туркмен. Издательство Академии наук СССР. Москва – Ленинград: 1958. –С. 190.

“CODEX CUMANICUS” QO‘LYOZMASINING MATNSHUNOSLIK MUAMMOLARI

Botir Jafarov,
NamDU dotsenti, f.f.b.f.d. (PhD)
(O‘zbekiston)

Резюме: В статье рассматривается история и исследование отмечает еще одну копию «Кодекса Cumanicus» и которая была сделана 5 ноября 1824 с неизвестными авторами. Также в статье дается информацию место происхождения и другой речатью на первое и раследное страницы оригинальной копии этой хорошо известной рукописи. И эта статья описывает количество исследований по этой копии.

Ключевые слова: «Кодекс Куманикус», рочерк, история, транслитерация, латинский, персидский, куманский, копия.

Resume: The article discusses the history and study notes another copy of the "Codex Cumanicus" which was made on the 5th November in 1824 with unknown author. Also in the article is given information the place of origin and conclusions about other seal on the first and last pages of original copy of this well-known manuscript. And this article is described the amount of researches on this copy.

Key words: «Codex Cumanicus», script, history, transliteration, Latin, Persian, Cuman, copy.

Kurrai zaminda bunyodga kelgan bir qator qadimgi turkiy qo‘lyozmalar barcha turkiy xalqlar uchun mushtarak obida ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Mazkur qo‘lyozmalar barcha turkiy xalqlarning adabiyoti, tarixi va madaniyati rivojining keyingi bosqichlaridagi taraqqiyoti uchun muhim adabiy yodgorlik sanaladi.

Turkiyshunoslikda ana shunday yodgorliklardan biri XIII asr oxiri XIV asr boshlarida lotin alifbosida yozilgan “Kodeks Kumanikus” asaridir. Mazkur qo‘lyozmaning asl nusxasi Venesiyaning Avliyo Mark milliy kutubxonasida DXLIX (№549) raqam bilan saqlanadi. Qo‘lyozma bugungi kunda yangi №1597 raqami bilan qayd etilgan.